

KICHIK VA O'RTA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB QUVVATLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402859>

Maxkamjonova Xumora Baxtiyor qizi

“Moliya” kafedrası o'qituvchisi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

***Annotatsiya.** Bozor iqtisodiyotida biznes va xususiy tadbirkorlik erkinligining ta'minlanganligi iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Tadbirkorlikni shakllantirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilishi kerak. Iqtisodiy sharoitlarga quyidagilar kiradi: tovarga bo'lgan talab va taklif; xaridor sotib olishi uchun tovar turlarining mavjudligi; xaridor sotib olishi uchun zarur pul hajmining mavjudligi; ishchilarning maoshiga, ya'ni sotib olish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi o'rinlari, ishchi kuchlarining ortiqchaligi yoki etishmovchiligi. Pul resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, kiritilgan kapitaldan olinayotgan daromad miqdori va o'z ishbilarmonlik operatsiyalarini moliyalashtirish uchun olinishi mo'ljallangan kredit miqdori iqtisodiy sharoitga ta'sir etadi. Bu ishlar bilan bozor infratuzilmasini tashkil etgan turli tashkilotlar shug'ullanadi. Tadbirkorlar shunday tashkilotlar bilan aloqa o'rnatib, tijorat operatsiyalarini amalga oshiradi. Moliya xizmatini ko'rsatuvchi banklar, xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, energiya, mashina va uskunalar, instrumentlar bilan ta'minlovchilar; tovarni xaridorga yetkazuvchi ulgurji va chakana savdogarlar; kasbiy, yuridik buxgalteriya xizmatlari, vositachilik xizmatini ko'rsatuvchi firma va korxonalar; ishchilar kuchini yollashda yordam beruvchi ishga joylash agentliklari; ishchi va mutaxassis xizmatchilarni tayyorlayotgan o'quv yurtlari; reklama, transport, sug'urta agentliklari; aloqa va axborotni uzatish vositalari ushbu tashkilotlar tizimini tashkil etadi.*

***Kalit so'zlar:** kichik tadbirkorlik subyektlari, mikrofirmalar, o'rta tadbirkorlik subyektlari, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi.*

Tadbirkorlikning shakllanishi ijtimoiy va iqtisodiy sharoit bilan chambarchas bog'liq. Tadbirkorlik shakllanishining iqtisodiy sharoitiga ijtimoiy sharoit yaqin turadi. Ijtimoiy sharoit, avvalo, xaridorlarning didi va modaga javob bera oladigan tovarlarni sotib olishga intilishi bilan belgilanadi. Turli bosqichlarda ushbu talab o'zgarib turishi mumkin. Bunga ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq axloqiy va diniy me'yorlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu me'yorlar xaridorlarning turmush tarziga va u orqali tovarlarga talabiga bevosita ta'sir etadi. Ijtimoiy sharoit shaxsning ishga munosabatiga o'z ta'sirini o'tkazadi, bu esa, o'z navbatida, biznes taklif etayotgan maoshning miqdoriga, mehnat sharoitiga munosabatiga ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq

ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni 2023 yilning 10-fevralida qabul qilindi.

Ushbu farmonga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan soliq islohotlarini izchil davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish hamda 2022-yilning 22-avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasining tadbirkorlik subyektlarini quyidagi mezonlar asosida toifalarga ajratish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi.

Ushbu hujjat bilan tadbirkorlik subyektlari quyidagi mezonlar asosida toifalarga ajratiladi:

- ❖ kichik tadbirkorlik subyektlari:
 - yakka tartibdagi tadbirkorlar;
 - mikrofirmalar – ta'sischilari (ishtirokchilari) jismoniy shaxslar bo'lgan hamda jami daromadi kalendar yil davomida 1 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari;
 - kichik korxonalar – jami daromadi kalendar yil davomida 1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan hamda ushbu kichik bandning uchinchi xatboshisidagi ta'sischilari (ishtirokchilari) yuridik shaxslar bo'lgan tadbirkorlik subyektlari;
 - ❖ o'rta tadbirkorlik subyektlari – jami daromadi kalendar yil davomida 10 mlrd so'mdan 100 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari;
 - ❖ yirik tadbirkorlik subyektlari – jami daromadi kalendar yil davomida 100 mlrd so'm va undan yuqori bo'lgan tadbirkorlik subyektlari.

Shuningdek, farmon bilan 2023 yil 1 apreldan boshlab:

- tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan bir yilda bir marotaba o'rta tadbirkorlik subyektlariga mol-mulkni sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizigacha, biroq BHMning 20 baravaridan oshmagan qismi qoplab beriladi;

- jami daromadi 10 mlrd soʻmdan kam boʻlmagan tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xaridlarida 20 foizlik kvota joriy etiladi va ushbu xaridlar doirasida byudjet buyurtmachilari bilan tuziladigan shartnomalarda 50 foiz miqdorida oldindan toʻlovni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Bunda, soliq organlari tomonidan jami daromadi 10 mlrd soʻmdan oshgan tadbirkorlik subyektlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar shakllantiriladi va maxsus axborot portali bilan maʼlumot almashinuvi taʼminlanadi;

- davlat xaridlarida eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolarida ishtirokchilar takliflarini baholashda QQS summasi inobatga olinmaydi;
- yuqori qoʻshilgan qiymatli mis mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarining mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni tashqi bozorga sotish bilan bogʻliq xarajatlarini eksport qiymatining 6 foizigacha qoplash tartibi bekor qilinadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishni kompleks qoʻllab-quvvatlashning “uzluksiz zanjirini” yaratish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning yangi texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan, sifatli hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi boʻgʻini boʻlgan oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash instrumentlari yetarlicha yaratilmasdan qolmoqda. Moliya bozorida resurslarning yuqori foiz stavkalari saqlanib qolayotgan sharoitda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil instrumentlarini yaratishga, xususan tadbirkorlik loyihalariga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etishga, kafillik yordamini taqdim etishni kengaytirishga ehtiyoj ortmoqda. Kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlariga eʼtibor qaratilar ekan, shuni taʼkidlash joizki, 2023 yilning 11-noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kichik va oʻrta biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni qabul qilindi.

Moliya bozorida resurslarning yuqori foiz stavkalari saqlanib qolayotgan sharoitda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning yangicha va muqobil instrumentlarini yaratishga, xususan tadbirkorlik loyihalariga ulush kiritish va

xizmatlar ipotekasini joriy etishga, kafillik yordamini taqdim etishni kengaytirishga ehtiyoj ortmoqda.

Biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida asosiy bo'g'inlardan biri bo'lgan Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining amaldagi tashkiliy-huquqiy shakli tadbirkorlik subyektlariga yetarlicha yordam ko'rsatish, yangi xizmat turlarini joriy etish, xalqaro moliya institutlaridan to'g'ridan-to'g'ri mablag' jalb etish imkoniyatini bermaydi.

Joriy yilning 18-avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda Jamg'arma faoliyatini jahon tajribasi asosida tashkil etish va tadbirkorlik subyektlariga ko'maklashish bo'yicha kompleks tizimni yaratish maqsadida Jamg'arma Iqtisodiyot va moliya vazirligi ta'sisichiligida "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil qilinishi ta'kidlandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasini jahon tajribasi asosida transformatsiya qilish ishlarini davom ettirgan holda uning faoliyatini quyidagilarga yo'naltirish haqidagi taklifi maqullandi. Ushbu taklifga ko'ra Kompaniya faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularni kompleks qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha yordam instrumentlarini mustaqil joriy etish, tadbirkorlarning qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalanish imkoniyatini oshirish;
- mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni, shu jumladan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'larini jalb qilish;
- kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ish o'rinlari yaratish imkonini beradigan davlat, tarmoq va hududiy dasturlar, loyihalar hamda tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, yangi turdagi mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyatiga samarali yangi texnologiyalarni joriy etish;
- oʻzini oʻzi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlaridan kelib chiqib ularning loyihalariga moliyaviy koʻmaklashish;
- xizmatlar koʻrsatish, mahsulot ishlab chiqarish va yetishtirish sohasida “yashil” va energiya tejovchi texnologiyalar hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni keng qoʻllab-quvvatlash.

Kompaniya tomonidan 2024-yil 1-martdan boshlab tadbirkorlik subyektlariga nisbatan bir nechta qoʻllab-quvvatlash choralari taqdim etilishi yuklatildi. Unga koʻra kompaniya oʻrta tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish loyihalariga loyiha qiymatining 15 foizi, biroq ustav kapitalining 20 foizi yoki 3 milliard soʻmdan ortiq boʻlmagan miqdorda tashabbuskorning ustav kapitaliga koʻchmas mulk obyektlari, asbob-uskunalar va boshqa koʻrinishdagi aktivlar shaklida ulush kiritishi, koʻchmas mulk va asbob-uskunalarining 70 foizi, biroq 10 milliard soʻmdan ortiq boʻlmagan miqdorda mulk sotib olish va yetti yilgacha muddatga qarzdorlik qoldigʻiga Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada yillik foiz hisoblash yoki boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan xizmatlar ipotekasi asosida tashabbuskorga berishi nazarda tutilgan.

Kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlarining loyihalariga esa kredit (lizing) ajratish uchun tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlariga milliy va xorijiy valyutada moliyaviy resurslarni joylashtirish, tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga umumiy qiymati 5 milliard soʻmdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etish; Kompaniya mablagʻlaridan foydalanish boʻyicha tijorat banklari bilan tuziladigan vositachilik shartnomalariga asosan belgilangan limit hamda umumiy miqdor va

shartlar doirasida kreditlar bo'yicha kafillik (portfel kafilligi) taqdim etish vazifasi yuklatildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi 2024 — 2026-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlariga Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori va asosiy stavkaning 1,75 baravaridan oshmagan stavkada milliy valyutada 5 milliard so'mgacha ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy stavkaning 40 foizigacha miqdorda uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga kompensatsiya taqdim etishi kerakligi ham ta'kidlab o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yakubov Ulugbek Kasimovich, Abduganieva Khumora Bakhtiyor kizi, Ganieva Umida Abdugaffarovna "INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DIGITAL MARKETING" // JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS, ISSN- 2394-5125, VOL 7, ISSUE 16, 2020

2. Abduganieva Khumora Bakhtiyor kizi "THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS IN THE WORLD. FINANCIAL AND CURRENCY MARKET AND ITS ACTIVITIES IN UZBEKISTAN" // SCIENTIFIC COLLECTION «INTERCONF» MONTERREY, MEXICO, № 92 | December, 2021

3. Abduganieva Khumora, Yakubov Ulugbek Kasimovich "PANDEMIYA DAVRIDA ZAIF MAMLAKATLARNI HIMOYA QILISHDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING ROLI" // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Volume – 6 Issue-7 June 2022

4. Abduganieva Khumora, O'roqov Uchqun Yunusovich "DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARINING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI VA SO'NGI YILLARDAGI O'ZGARISHLAR" // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Volume – 6 Issue-7 June 2022

5. Abduganieva Khumora "GLOBAL IQTISODIYOTNI BOSHQARISHDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING FUNKTSIONAL ROLINI QAYTA KO'RIB CHIQUISH" // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Volume – 6 Issue-7 June 2022

6. Abduganieva Khumora, Yakubov Ulug'bek Kasimovich "MAMLAKATIMIZDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH SHART-SHAROTILARI" // International scientific and educational electronic journal "EDUCATION AND SCIENCE IN THE XXI CENTURY". Issue No. 25 (vol. 7) (April, 2022).

Makhkamjonova Khumora Bakhtiyor kizi ADMINISTRATIVE CHALLENGES IN THE IMPLEMENTATION OF GOVERNMENT LOANS: A FOCUS ON UZBEKISTAN. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, Dekabr 2023 // Xalqaro ilmiy elektron jurnal, 11-SON, 8-TO'PLAM